

**QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 3-soni)**



**JISMONIY MADANIYAT  
PHYSICAL CULTURE**

**1991-2003-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA SPORT TURLARINI  
OMMALASHTIRISHGA DOIR ISLOHOTLAR**

*Tishabaev Alisher Maxamadjonovich-  
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi  
[alisertisabaev@gmail.com](mailto:alisertisabaev@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada 1991-2003-yillarda O‘zbekistonda barcha sport turlarini rivojlantirish, sportning bir necha turlari bo‘yicha go‘liblikni qo‘lga kiritgan yurtdoshlarimiz haqidagi ma’lumotlar ilmiy, tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, mamlakatimiz sportchilarining Olimpiya o‘yinlarida ishtiroki hamda xalqaro va milliy sport turlarini ommalashtirish qaratilgan tadbirlar tadqiqot doirasiga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** sport, stadion, boks, kurash, medal, terma jamoa, darvozabon, kubog, o‘yingoh.

**РЕФОРМЫ ПО ПОПУЛЯРИЗАЦИИ СПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ В 1991-2003 ГОДАХ**

**АННОТАЦИЯ:** В этой статье представлена информация о развитии всех видов спорта в Узбекистане в 1991-2003 годах, о наших соотечественниках, одержавших победу в нескольких видах спорта на основе научной, исторической литературы и источников. Также в сферу исследования были включены мероприятия, направленные на участие спортсменов нашей страны в Олимпийских играх и популяризацию международных и национальных видов спорта.

**Ключевые слова:** спорт, стадион, бокс, борьба, медаль, сборная, вратарь, кубок, игра.

**SPORTS POPULARIZATION REFORMS IN UZBEKISTAN IN 1991-2003**

**ABSTRACT** This article covers the development of all sports in Uzbekistan in 1991-2003, information about our compatriots who have won the trophy in several sports on the basis of scientific, historical literature and sources. Also, activities aimed at the participation of athletes of our country in the Olympic Games and the popularization of international and national sports are drawn into the scope of research.

**Keywords:** Sports, stadium, boxing, wrestling, medal, national team, goalkeeper, cup, matchmaker.

## Kirish

Keying yillarda respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda yurtimizning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minalash masalalarida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, hukumatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni amaliyatga joriy etish borasida ham islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuni qayd etib o‘tish kerakki, bugungi kunda yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarini taminlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarini shakllantirish va trenerlar uchun qo‘srimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2020-yil 24-yanvardagi mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish to‘g‘risidagi farmonining imzolanishi sohaga bo‘lgan katta e’tiborni bildiradi [14].

Ayni vazifalardan kelib chiqib, mamlakatda sport turlarini ommalashtirish, sportchlarning yuqori natijalari tarixi, buguni va ertasi masalalarini o‘rganish, e’tibor qaratish zarurati vujudga keldi.

### Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritildi. Maqolada 1991-2003-yillarning davriy chegarasida O‘zbekistonda sport turlarini ommalashtirishga doir islohotlar, xalqaro Olimpiya o‘yinlari va boshqa qator sport musobaqalarida yurtdoshlarimiz erishgan yutuqlar, jumladan, sportning boks, engil atletika kabi turlarida sportchilarimizning muvaffaqiyatlari davriy nashrlar va arxiv manbalarida keltirilgan ma’lumotlar asosida tahlil qilindi.

Ushbu davr o‘rganilganda bir necha tarixchi-olimlar tadqiqot ishlari ham ko‘rib chiqildi. Hususan, H.Isoqov va U.Hakimjonovlarning tadqiqot ishlarida yuqori nitajalar sporti yo‘nalishiga kiruvchi boks turi tarixi, uning shakllanishi, faoliyatidagi o‘zgarishlar va aholi orasida ommalashuvi borasidagi sa’y-harakatlar, 1996-yilgi Atlanta (AQSh)dagi o‘tkazilgan XXVI olimpiada o‘yinlari sarhisobi, unda dzyudo va boks sport turlaridan qo‘lgan kiritilgan medallar, 10 nafer mamlakat bokschilarning 2000-yil Sidney (Avstraliya) shahrida bo‘lib o‘tgan XXVII Olimpiadada ishtirok etishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlar atroflicha bayon qilingan [1. ].

Respublikaning shu soha vakillari tomonidan chop etilgan qator tadqiqotlarda jismoniy tarbiya va sport tarixi, istiqlol bergan imkoniyat natijasida qator sport turlari, harakatli o‘yinlarning qaytadan tiklanishi, xalqaro sport turi sifatida jahon davlatlari tomonidan keng miqyosda e’tirof etilishiga ko‘pgina imkoniyatlarning yaratilishi, ko‘hna -Termiz hamda Shahrисabz shaharlarida o‘zbek milliy kurashi bo‘yicha qator xalqaro musobaqalarning o‘tkazilishi tahlil qilingan [2.]. Garchand mazkur izlanishlar aynan soha tarixiga doir bo‘lmasada, olib borilgan bu tadqiqotlarda sohada amalga oshirilgan so‘nggi modernizatsion jarayonlar hamda o‘zgarishlar, qator o‘tkazilgan bosqichli islohotlar, tarixiy davrlarda

shakllangan o‘zbek millatiga taalluqli milliy sport turlarini aholi o‘rtasida rivojlantirish, ommalashtirish, mustaqillik davrida bolalar va xotin-qizlar sportiga davlat tomonidan jiddiy ahamiyat berilganligi birlamchi manbalar va davriy matbuot nashrlari yordamida o‘rganilgan.

Mavzuni o‘rganish jarayonida sovet hokimiyati yillarida chop etilgan «Staticheskiy byulleten», «Selskoe xozyaystvo Uzbekistana», «Sovet maktabi», «Narodnoe obrazovanie» kabi jurnallar, «O‘qituvchilar gazetasi», boshqa qator gazeta sahifalarida maktabgacha ta’lim tizimi, bog‘cha va yaslilar haqida e’lon qilib borilgan maqolalardan keng foydalanildi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ushbu manbalarni o‘rganib, qiyosiy tahlil qilib, ilmiy xulosalarning olinishi tanlangan mavzuni tarixiy nuqtai nazardan kompleks o‘rganish va ob’ektiv yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Natijalar:**

Istiqlolning dastlabki yillaridan e’tiboran mamlakatda barcha sport turlarini rivojlantirishga va ularni hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga jiddiy ahamiyat berildi. Xususan, yuqori natijalar sportiga oid boks turini yanada taraqqiy ettirish va unga xalqaro tus berishga kirishildi. Respublikada boks sportning eng sevimli turlaridan biri sifatida yoshlar orasida tobora rivoj topdi. O‘z navbatida viloyatlardagi boks sport maktablarining faoliyatini yuqori darajada olib borilishi iste’dodli bokschilar yetishib chiqishini ta’mnladi. Dastavval, 1991-yili A.Grigroryan “Yaxshi niyat o‘yinlari”ning bosh sovriniga da’vogarlik qildi. Aynan shu yilda bo‘lib o‘tgan mamlakat championati I.Buninga oltin, A.Grigroryan va O.Maskaevga kumush, E.Karimovga esa bronza medalini taqdim etdi. Shu yilda Minskda o‘tkazilgan oxirgi Spartakiada musobaqasida A.Grigroryan champion bo‘lib, O.Maskaev ikkinchi, X.Tursunov, N.Sultonov, N.Otaev, M.Kitobov va I.Buninlar uchinchi o‘rinni egallashga muvaffaq bo‘ldilar hamda jamoa esa to‘rtinchi pog‘onadan joy oldi [3.187.]. Shu bilan birga, A.Grigroryan mazkur yilni ajoyib natija, ya’ni Avstraliyada o‘tgan Jahon championatining kumush medalini qo‘lga kiritish bilan yakunladi.

Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tish joizki, O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida Olimpiya o‘yinlarida ilk bor 1994-yilda qatnashdi va o‘sha davrdan buyon har bir o‘yinga sportchilarni mazkur xalqaro musobaqalarga yuborishni maqsad qilib oldi. Ilgari o‘zbekistonlik sportchilar 1952-yildan to 1988-yillargacha bo‘lgan davr mobaynida sobiq Sovet Ittifoqi tarkibidagi Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etgan edi, Ittifoq parchalanganidan keyin esa 1992-yilda O‘zbekiston Yagona terma jamoa tarkibiga kiritildi [4.6.]. O‘zbekistonlik sportchilar yozgi musobaqalarda, asosan kurash va boks bo‘yicha jami o‘n yettita medalni qo‘lga kiritdi. Mamlakat qishki Olimpiya o‘yinlarida ham bitta medalni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi [5.56.].

1992-yilda A.Grigroryan MDH championatida muvaffaqiyat qozondi hamda B.Belosarovga bronza medali nasib qildi. Ayni shu paytdan boshlab, iqtisolga yuz tutgan O‘zbekiston turli xalqaro musobaqalarda o‘z milliy terma jamoasi bilan ishtirok eta boshladи. Xususan, 1993-yili Finlyandiyaning Xelsinki shahridagi jahon championatida qatnashgan X.Ahmedov mustaqil O‘zbekiston jamoasiga kumush medalni tuhfa qildi [1.18.]. “Jahon kubogi

– 1994” (Bangkok) musobaqalarida N.Otaev, O.Maskaev ikkinchi, T.Ibragimov uchinchiligi sovrindor bo‘ldilar. O‘sha yili o‘tkazilgan XII Osiyo o‘yinlarida respublika sportchilari muvaffaqiyatli ishtirok etib, Xerosima ringida O.Maskaev hamda A.Avezboev shohsupanining eng baland pog‘onasiga chiqdi, D.Yorbekov va N.Otaev bronza medalini qo‘lga kiritishdi [5.57.].

Boks sport turi bo‘yicha muvaffaqiyatlar keyingi yillarda ham davom etdi. 1995-yili Germaniyaning Berlin shahrida bo‘lib o‘tgan Jahan championatida D.Yorbekov bronza medalini qo‘lga kiritdi. Xuddi shu yili Osiyo championati birinchi marta Toshkentda o‘tkazildi va qit‘a championatida o‘zbekistonliklar ilk bor qatnashdilar. Unda N.Otaev, D.Yorbekov, R.Chagaevlar oltin, M.Abdullaev kumush va T.To‘laganov hamda K.To‘laganovlar bronza medali sovrindori bo‘ldilar.

1996-yilning 19-iyulida AQShning Atlanta shahrida o‘tkazilgan XXVI yozgi “Atlanta-96” Olimpiadasida K.To‘laganov bronza medaliga sazovor bo‘ldi. Malayziyada bo‘lib o‘tgan XIX Osiyo championati (1997-yil) o‘zbek boks maktabi vakillariga yanada muvaffaqiyatli kechdi. Ushbu musobaqalarda T.Turg‘unov, M.Abdullaev, S.Mixaylov oltin medalni qo‘lga kiritdi. A.Rahimov, N.Otaev, I.Berdiev, D.Yorbekovlarga kumush medal nasib qilgan bo‘lsa, F.Bakirov, T.Ibragimov, L.Zokirovlar esa bronza medali bilan taqdirlandi [7.23.].

O‘zbekiston Respublikasida 1996-yil sarhisobi bo‘yicha quyidagilar eng yaxshi sportchilar sifatida e’tirof etildi, ya’ni kurash turi bo‘yicha Bahrom Avazov sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan Xalqaro turnir g‘olibi hamda Armen Bagdasarov - Atlantadagi XXVI yozgi Olimpiya o‘yinlarining dzyudo bo‘yicha kumush sovrindori, Pavel Bugalo - futbol bo‘yicha milliy terma jamoasi darvozaboni, Sergey Vainov - yoshlar o‘rtasida yengil atletika bo‘yicha Jahan championi, Ramil G‘aniev - XXVI olimpiya o‘yinlarining eng kuchli o‘nligiga kirgan yengil atletikachi, Artur Grigoryan - professional bokschilar o‘rtasida bir necha marta Jahan championi, Ulug‘bek Mahmudov - 1996-yilgi Osiyo championi, og‘ir atletikachi, Karim To‘laganov - XXVI yozgi Olimpiya o‘yinlarining boks bo‘yicha bronza medali sovrindori, Shuhrat Xo‘jaev - jahon kubogi egasi, sambo bo‘yicha 1996-yilgi Osiyo championi, Oksana Chusovitina - XXVI yozgi Olimpiya o‘yinlarining eng kuchlilar o‘nligiga kirgan gimnastikachi, Saydali Yo‘ldoshev - Yerevanda bo‘lib o‘tgan Jahan shaxmat olimpiadasida oltin medalni qo‘lga kiritgan xalqaro grossmeyster, Almaz Yusupov - kikboksing bo‘yicha 1996-yilgi Jahan championlari nomlaridan iborat bo‘ldi [8.450.].

1998-yili Xitoyda bo‘lib o‘tgan Jahan kubogi bahslari boks vakillari uchun sovrinlarga boy bo‘ldi. M.Abdullaev hamda L.Zokirov bosh sovringa egalik qildi, T.Turg‘unov esa final ishtirokchisi bo‘ldi. Shuningdek, D.Yo‘ldoshev, D.Yorbekov va N.Otaevlar shohsupanining uchinchiligi pog‘onasiga chiqishdi. O‘zbekistonlik charm qo‘lqop ustalarining zafarli yurishi “Yaxshi niyat o‘yinlari” (Nyu-York)da ham davom etdi. T.To‘lakov okean ortidan oltin medal olib qaytgan bo‘lsa, D.Yorbekov bronza medalini qo‘lga kiritdi [7.56.].

O‘zbek mashhur bokschisi R.Chagaev 1997-yili Budapesht shahrida tashkil etilgan jahon championatida katta shuhrat qozondi. U barcha janglarni ko‘tarinki ruhda o‘tkazib, finalda ikki

karra Olimpiya championi, olti marta jahon championi bo‘lgan kubalik Feliks Savonni mag‘lubiyatga uchratdi. 2001-yil Belfastda o‘tgan jahon championatida u o‘ta og‘ir vaznda jahon championi bo‘ldi [9.12.]. Sportchi 2007-yil 14-aprel kuni Germaniyaning Shtutgart shahrida professional boksning WBA yo‘nalishi bo‘yicha jahon championi N.Valuev bilan bo‘lgan bellashuvda g‘alaba qozondi va o‘ta og‘ir vazn toifasi bo‘yicha jahon championi unvonini qo‘lga kiritdi [10.238.].

Istiqlol yillari boks bilan bir qatorda yengil atletika sport turiga bo‘lgan qiziqish ortdi va mamlakatning mazkur sport turi bo‘yicha vakillari Olimpiada, Osiyo o‘yinlari, jahon championati va boshqa xalqaro musobaqlarda o‘z terma jamoalari bilan bevosita qatnashish huquqiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi 1992-yilda Xalqaro yengil atletika federatsiyasi (IAAF)ga a’zo bo‘lib kirdi hamda 1993-yilda esa u Osiyo yengil atletika assotsiatsiyasiga qabul qilindi [11.36.].

O‘zbekiston terma jamoasi birinchi marta 1994-yilning 2-16-oktyabr kunlari Xirosima shahrida (Yaponiya) XII Osiyo o‘yinlarida 32 ta sport turi bo‘yicha 134 nafar o‘zbekistonlik sportchilar qatnashdilar va ular 42 ta medal (11 oltin, 12 kumush, 19 bronza) sohibiga aylandilar hamda umumjamoa hisobida 5-o‘rinni egalladilar. Bu musobaqlarda yengil atletikadan 11 sportchi bilan ishtirok etib, 3 ta oltin S.Munkova balandlikka sakrash, O.Yarigina nayza otish, R.G‘aniev o‘nkurash, 2 ta kumush V.Parfenov nayza otish, O.Veretelnikov o‘nkurash va 3 ta bronza (K.Zaysev) medaliga sazovor bo‘ldilar.

1998-yilning 6-20 dekabr kunlari Bangkok (Tailand)da bo‘lib o‘tgan XIII Osiyo o‘yinlarida mamlakat delegatsiyasi tarkibidan 168 nafar sportchilar joy olib, o‘zbek sportchilar 44 ta medalni (undan 6 ta oltin, 23 ta kumush, 15 ta bronza) yutgani holda ular 10-o‘rinni band etishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu musobaqlarda 13 ta yengil atletikachilar ishtirok etib, 2 ta oltin S.Voynov nayza otish, O.Veretelnikov o‘nkurashda, 2 ta kumush A.Abdugaliev bosqon uloqtirishda va estafetada g‘alabaga erishdi [12.88.]. Osiyo o‘yinlari hamda championatlarida (1993-2000-yillar) o‘zbekistonlik yengil atletika sohiblari jami 7 ta oltin, 13 ta kumush hamda 7 ta bronza medallariga sazovor bo‘ldilar. O‘zbekiston yengil atletikachilar 1993-yil 13-22 avgust kunlari Germaniyaning Shtutgart shahrida o‘tkazilgan IV Jahon championatida munosib qatnashdilar. Unda dunyoning 187 ta mamlakatidan 1698 ta sportchi ishtirok etdi, ular orasida 7 ta o‘zbekistonlik sportchi mavjud edi. Shu yil Shvetsianing Geteborg shahrida 8 ta sportchi muvaffaqiyatlari qatnashdi [7.56.]. 2001-2002-yillarda O‘zbekiston Respublikasi yengil atletika terma jamoasi Jahon va Osiyo championatlarida, XIV Osiyo o‘yinlarida hamda MDH xalqaro o‘smlilar o‘yinlarida (Moskva, 2002-yil) qatnashdilar. 2001-yilda L.Andreev Osiyo championatida kumush medal sovrindori bo‘ldi. 2002-yili esa u o‘nkurash bo‘yicha o‘smlilar o‘rtasida championlik nomiga sazovor bo‘ldi. Osiyo championatida yengil atletikachilar asosan 6 ta kumush hamda 3 ta bronza medallarga da‘vogarlik qildi [11.37.].

2002-yil 29 sentyabr – 14 oktyabr kunlari Janubiy Koreyaning Pusan shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida o‘zbekistonlik sportchilar sportning 24 turi bo‘yicha muvaffaqiyat bilan qatnashib, quyidagi natijalarini qayd etdi. Ular 15 ta oltin, 12 ta kumush hamda 24 ta bronza

medallarini qo‘lga kiritib, qirqdan ortiq mamlakatlar orasida faxrli beshinchi o‘rinni egalladilar [13.]. 2003-yilda yengil atletikachilar respublika va xalqaro 28 ta musobaqalarda qatnashdilar. Respublika terma jamoasi Parijda o‘tkazilgan 9-jahon championatida, o‘smirlar o‘rtasida o‘tkazilgan 3 championati (Kanada), Osiyo 15 championatida Milan (Filippin), 5-Markaziy Osiyo o‘yinlarida Dushanbe shahrida ishtirok etdi. O‘tkazilgan Osiyo championatida esa yengil atletikachi sportchi jamoalar jami 10 ta medalga, jumladan, 4 ta oltin, 1 ta kumush va 5 ta bronza medal qo‘lga kiritgani holda, qatnashuvchi 44 mamlakat o‘rtasida faxrli 3-o‘rinni egallahga muyassar bo‘ldi [7.45.]. Markaziy Osiyo o‘yinlarida o‘zbekistonlik yengil atletikachilar 35 ta medal (12 ta oltin, 17 ta kumush, 6 ta bronza) lar bilan ikkinchi o‘rinni egallahdi. Aynan shu yilda 5 ta yengil atletikasi Olimpiada 2004 o‘yinlarida qatnashish uchun L.Perepelova, G.Xubbieva, S.Voynov (1997-yili Almati shahrida Markaziy Osiy o‘yinlari g‘olib, 1998-yili Osiyo o‘yinlari championi bo‘lgan), A.Juravleva va V.Smirnovlar normativlarni bajarib litsenziya olishga muvaffaq bo‘ldilar [7.77.].

### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O‘zbekistonda qator xalqaro va milliy sport turlari rivojlanib bordi va tobora ommalashdi. Aytish o‘rinligi, bu sohada qator modernizatsion jarayonlar kuzatildi va u yangi ma’no-mazmun bilan boyidi, yil sayin tobora jadallahdi va jahon sportiga qo‘sildi hamda xalqaro maydonda salmoqli o‘rinni egalladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatda yuqori natijalar sporti rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatdi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Исақов X., Ҳакимжонов У. Жаҳон ва Осиё йўлбарслари. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2000. – 88 б.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. –560 б.
3. O‘zMA, M.38-fond, 1-ro‘yxat, 566-yig‘majild, 187-varaq.
4. Sport in Central Asia: Central Asian Games, Sport in Uzbekistan, Uzbekistan at the Olympics, Tashkent Open, Kurash / by Books Group. –UAE: Books LLC, 2010. –P.6.
5. O‘zMA, M.1-fond, 18-ro‘yxat, 19-yig‘majild, 56,57-varaqlar.
6. Исақов X., Ҳакимжонов У. Жаҳон ва Осиё йўлбарслари.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2000.-Б.18.
7. O‘zMA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 12-yig‘ma jild, 23,45, 56, 77-varaqlar.
8. Тюриков В., Шоғуломов Р. Истиқлол йилномаси. Ўзбекистон Республикаси: одамлар, саналар, воқеалар (1991-2001).-Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.-Б.442, 450, 456.
9. O‘zMA, M.38-fond, 6-ro‘yxat, 118-yig‘majild, 12-varaq.
10. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi.-Toshkent: O‘qituvchi, 2008.-B.238.
11. Abdullayev M.J., Olimov M.S., To‘xtaboyev N.T. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi.-Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.-B.36-37.

12. O‘zMA, M.38-fond, 3-ro‘yxat, 112-yig‘majild, 88-varaq.
13. Азимов С. Осиё ўйинларидаги муваффақиятлар // Халқ сўзи, 2002 йил 2 ноябрь.
14. <https://lex.uz/ru/docs/-4711327>